

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.T.115.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

SHAMIYEV DIYOR BAHRIDDIN O'G'LI

TO'QUV DASTGOHLARI ASSORTIMENTLIK IMKONIYATLARI
ASOSIDA YO'L-YO'L NAQSHLI TO'QIMALARNI LOYIHALASH

05.06.02 - To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Jizzax– 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Shamiyev Diyor Bahriddin o‘g‘li

To‘quv dastgohlari assortimentlik imkoniyatlari asosida yo‘l-yo‘l
naqshli to‘qimalarni loyihalash..... 5

Шамиев Диёр Бахриддин угли

Проектирование полосатых тканей на основе ассортимента
возможности ткацких станков..... 23

Shamiyev Diyor Bahriddin ugli

Design of striped fabrics based on the assortment possibilities of
weaving machines 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.T.115.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

SHAMIYEV DIYOR BAHRIDDIN O‘G‘LI

TO‘QUV DASTGOHLARI ASSORTIMENTLIK IMKONIYATLARI
ASOSIDA YO‘L-YO‘L NAQSHLI TO‘QIMALARNI LOYIHALASH

05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Jizzax– 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/T2530 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Jizzax politexnika instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jizpi.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Doniyorova Matluba Adashbayevna
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Valiyev Gulam Nabidjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Xazratqulov Xamid Aliqulovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.

Dissertatsiya himoyasi Jizzax politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **PhD.03/30.06.2020.T.115.01** raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "31" yanvar soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:130100, Jizzax sh., Islom Karimov ko'chasi, 4-uy.

Tel.:(+99872) 226-46-05,faks: (+99872) 226-45-06; e-mail: dgpi_info@edu.uz Jizzax politexnika instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Jizzax politexnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№_raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil:130100, Jizzax sh., Islom Karimov ko'chasi, 4-uy. Tel.:(+99872) 226-46-05, faks: (+99872) 226-45-06;

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "20" yanvar kuni tarqatildi.
(2024 yil "15" yanvardagi 45-raqamli reestr bayonnomasi).

A. Usmankulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

I.Abbazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, t.f.f.d.(PhD), dotsent

A.Parpiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda to‘qimachilik sanoatida turli xildagi kiyim-kechak va buyumlarga bo‘lgan talabning ortib borishi va ushbu talablarni amalga oshirishda yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida to‘qimachilik bozorining hajmi 2023 yildan 2030 yilgacha yillik o‘sish sur‘ati (CAGR) 7,6% ga¹ o‘sishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkich to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda, nafaqat texnologik jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etish bilan bog‘liq, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni loyihalash, sifat ko‘rsatkichlarini bashoratlash va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, texnologik jarayonlarni takomillashtirishda jihoz va uskunalarning texnologik imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda to‘qimachilik matolari ishlab chiqarish tajribasida yangi assortimentdagi yo‘l-yo‘l naqshli matolarni ishlab chiqarish, mahalliy tabiiy tolalarni chuqur qayta ishlash hisobiga ulardan foydalanishni ko‘lamini kengaytirish, shuningdek, to‘quv dastgohlarini texnologik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, yo‘l-yo‘l naqshli gazlamalarda turli o‘lchamdagi naqsh shakllantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, to‘quv dastgohi assortimentlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘llarini qidirish, yangi o‘rilish turlarini taklif etish va sifat ko‘rsatkichlarini tadqiq etish yo‘li bilan matoning iste‘mol xususiyatlarini yaxshilashga doir tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga yo‘l-yo‘l naqshli gazlamalar ishlab chiqarishda tanda va arqoq iplarini to‘quv dastgohiga taxtlash ko‘rsatkichlari hamda ularning naqsh o‘lchamlariga ta‘sirini aniqlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamiz Milliy iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoati ulushini oshirish, to‘quv dastgohlarining texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish orqali yangi turdagi to‘qima matolarini taxtlash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida, «...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish orqali sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash, jumladan, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish...»² bo‘ycha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mavjud to‘quvchilik korxonalarini to‘quv dastgohlarining texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish, mahalliy to‘qimachilik tolalarini chuqur qayta ishlash hisobiga to‘qima

¹ <https://www.researchreportsworld.com>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-53-sonli Farmoni.

matolari assortimentini kengaytirish, dastgohlarga iplarni taxtlashning maqbul qiymatlarini o'rnatish orqali ip uzilishlari sonini kamaytirish, mahsulot sifat ko'rsatkichlarini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan loyihaviy yechimlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni, 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2019 yil 16 sentabrdagi PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. To'quv dastgohlari, ularda to'qima hosil qilish imkoniyatlari va ularni takomillashtirish bo'yicha S.Adanur, S.Maity, K.Singha, M.Abdelfattah, N.Gokarneshan, N.Jegadeesan, P.Dhanapal, J.Szosland, Z.Baolin, G.Yueyang, C.Ruiqi, N.G.Novikov, V.P.Sklyannikov, A.A.Martinova, O.S.Kutepov, G.V.Stepanov, E.A.Onikov, T.Yu.Kareva, Ye.N.Kartashova, M.V.Nazarova kabi bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar.

Turli to'quv dastgohlarida to'qima hosil qilishda texnologik ko'rsatkichlarni maqbullashtirish, dastgohlarning ayrim mexanizmlarini takomillashtirish, turli to'qimalarning tuzilish ko'rsatkichlari va to'quv usulida badiiy bezash asosida yangi assortimentdagi to'qimalar tarkibini shakllantirishga oid yurtimiz olimlaridan E.Sh.Alimboyev, O.A.Ahunbabayev, G.N.Valiyev, B.X.Baymurotov, A.D.Daminov, P.S.Siddiqov, B.K.Xasanov, S.S.Rahimxodjayev, D.N.Qodirova, S.A.Xamrayeva, U.T.Abdullayev, N.Sodiqova, M.Doniyorova, A.Daminov, X.Rasulov, N.Yusupova kabilar turli yillarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida to'quvchilik texnologiyasi va to'quv dastgohlarini takomillashtirish, turli maqsadlarda ishlab chiqarilgan to'qimalarning tuzilishi hamda fizik-mexanik xossalarini yaxshilash borasida salmoqli natijalarga erishilgan. Shu bilan birga to'quvchilik jarayonida turli assortimentda matolar ishlab chiqarish sezilarli darajada rivojlanishiga qaramay, to'quv dastgohlarining texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish va yo'l-yo'l naqshli to'qimalar loyihalash va ishlab chiqarishda hal etilishi lozim bo'lgan masala va muammolar mavjudligini qayd etish lozim. Xususan, mamlakatimizda mavjud to'quv dastgohlarining assortimentlik imkoniyatlarini tahlil qilish va shu asosda oddiy va sirdig'a naqshli to'qima matolari qatorida to'quv usuli bilan to'qima sirtida yo'l-yo'l naqshlar hosil qilish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti №PZ-2020082952 raqamli "Ipak va paxta xomashyosi aralashmasidan ko'ylakbop va kostyumbop mato ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'quv dastgohlari assortimentlik imkoniyatlarini tahlil qilish asosida yo'l-yo'l naqshli to'qimalarni loyihalashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to'qima sirtida yo'l-yo'l naqshlarni hosil qilishda to'quv dastgohi texnologik omillarini analitik asoslash;

turli to'quv korxonalarida o'rnatilgan dastgohlarni assortimentlik imkoniyatini tahlil qilish;

to'quv usulida to'qima sirtida yo'l-yo'l naqsh hosil qilish imkoniyatlarini tadqiq etish;

yo'l-yo'l naqshli o'rilishlarni yangi turlarini ishlab chiqish orqali bir qatlamli va murakkab to'qimalarni loyihalash;

turli arqoq iplaridan turli zichlikda to'qima shakllantirish hisobiga uning sirtida yo'l-yo'l naqshlar hosil qilish;

taklif etilgan ko'ndalang yo'l-yo'l naqshli matolarning fizik-mexanik xossalarni tadqiq etish orqali foydalanilish sohasini aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida to'quvchilik korxonasidagi mitti mokili, pnevmati va rapirali to'quv dastgohlari, homuza hosil qilish mexanizmlari, ko'p rangli mexanizm, to'qimani tortish va o'rash mexanizmi, yo'l-yo'l naqshli to'qimalar.

Tadqiqot predmeti to'qimachilik korxonalaridagi turli tolaviy tarkibli va turli chiziqli zichlikdagi tanda va arqoq iplari, yo'l-yo'l naqshli mato o'rilishi va zichligi, yo'l-yo'l naqshli to'qima va uni loyihalash usuli tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida to'quv texnologiyasi, to'qimachilik materialshunosligi, to'qima tuzilish nazariyasi, nazariy mexanika dissertatsiyaning umumiy tadqiqot natijalarini olish imkonini beruvchi nazariy-tajribaviy va amaliy matematika usullari hamda kompyuter dasturiy ta'minotidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'qimalarni loyihalash uchun o'rilish turlari turli to'quv dastgohlari homuza hosil qilish mexanizmlarining ishlash tartibi asosida yo'l-yo'l naqshli bir qatlamli va murakkab to'qima ishlab chiqilgan;

rapirali va pnevmatik to'quv dastgohlarining to'qimani tortish va o'rash mexanizmlari texnologik imkoniyatlaridan foydalangan holda dastgohda to'qima ko'ndalang yo'llari enini belgilash va turli chiziqli zichlikdagi iplarni joylashtirishni amaliy natojalar asosida ishlab chiqilgan;

to'quv dastgohining iplardan ko'p rangli mexanizmidan foydalangan holda tolaviy tarkibi va chiziqlida zichligi turlicha bo'lgan arqoq iplaridan to'qima sirtida ko'ndalang yo'l-yo'l naqsh shakllantirilgan;

tanda va arqoq iplarining deformatsiya qiymati va bikrlilik koeffisientini hisobga olgan holda to'qima qalinligi va iplarning chiziqli zichlik koeffisienti aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli to'quv dastgohlarining assortimentlik imkoniyatlari tadqiq qilindi va shu asosda yo'l-yo'l naqshli o'rilish turini ishlab chiqilgan;

turli tolaviy tarkibli, turli chiziqli zichlikdagi arqoq iplaridan zichligi bir-biridan farqli ko'ndalang yo'llar shakllantirilishi hisobiga yo'l-yo'l naqshli to'qimalar assortimenti kengaytirilgan;

tajriba natijalarida taklif etilgan yangi yo'l-yo'l to'qimalar uchun to'quv dastgohini taxtlash ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

taklif etilgan yo'l-yo'l naqshli to'qimalar sirt zichligi va fizik-mexanik xossalari asosida ko'ylak-kostyumbop va mebelbop gazlamalr sifatida tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida natijalarning ishonchliligi dissertatsiyada keltirilgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar, nazariy hamda eksperimental tadqiqot natijalarining bir-biriga mos kelishi, aprobatsiya va joriy qilinishidagi ijobiy natijalarni solishtirish, baholashga, ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari, shuningdek, ularning ko'rib chiqilayotgan sohasidagi ma'lumotlariga qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'ndalang yo'lli o'rilishlar, turli tolaviy tarkibli va turli chiziqli zichlikdagi arqoq iplaridan turli zichlikda yangi yo'l-yo'l naqshli bir qatlamli va murakkab matolar olinganligi, shuningdek turli to'quv dastgohlaridagi homuza hosil qilish, ko'p rangli mexanizmlar va to'qima rostlagichlarining ishlash tartibi bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishning ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilgani, olingan natijalarning amaliyotdagi natijalar bilan mutanosibli, tajribaviy tadqiqot natijalariga binoan yo'l-yo'l naqshli matolar uchun yangi o'rilish turini yaratilishi hisobiga yangi assortimentdagi yo'l-yo'l naqshli matolar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlashi va iqtisodiy samaradorligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

To'quv dastgohlarining texnologik imkoniyatlarini tadqiq qilish va yangi yo'l-yo'l naqshli o'rilish turi joriy etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

yangi turdagi yo'l-yo'l naqshli matoning o'rilish turi hamda taxtlash ko'rsatkichlari "NT HOLDING Home Textile" MCHJda ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2022 yil 27 iyundagi №30/25-1431-son ma'lumotnomasi). Natijada mahsulot samaradorligi mavjud gazlama uchun mos ravishda 20,6%, yangi loyihalangan ko'ndalang yo'lli gazlamalar ishlab chiqarish uchun 48,2-56,2% ni tashkil etdi. Zamonaviy to'quv dastgohlari bilan jihozlangan korxonalarda kapital mablag'larni qoplanish muddati o'rtacha 2,5 marta qisqardi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, shu jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, «Scopus» ma'lumotlar bazasida

indekslangan xorijiy nashrlarda 1 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola nashr etilgan, shundan 2 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk Agentligining Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturga 2 ta mualliflik guvohnomasiga talabnoma topshirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 96 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi **“Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi va tadqiqot vazifalari”** deb nomlangan bobida to‘quvchilik ilmi - ilm-fan va san‘at uyg‘unlashuvi sifatida, to‘qimalar dizayni uni tuzilishini aniqlovchi omillarga bog‘liqligi bayon etilgan. To‘quv korxonalarida mokili dastgohlarning mokisiz to‘quv dastgohlari bilan almashtirilishi nafaqat dastgoh unumdorligini oshirish, shuningdek, homuzaga arqoq tashlashning yangi usullarini keng imkoniyatlarini ochib berganligi aniqlangan.


Bugungi kunda eng mashhur to‘quvchilik korxonalariga mitti mokili, rapirali va pnevmatik to‘quv dastgohlari o‘rnatilganligi, rapirali dastgohlarning tezligi juda yuqoriligi va to‘qima assortimentiga juda tez moslashishi va bu dastgohlar turli tolali iplardan yuqori sifatli matolar ishlab chiqarayotganligi bayon etilgan.

To‘qimaning tuzilishi uning sirt ko‘rinishi (bezagi) va fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlaydi, xususan, iplarning diametri, ularning deformatsiyasi, iplar orasidagi masofa, to‘lqin balandligi, ip egilish burchagi kabi ko‘rsatkichlar mato tuzilishini matematik modellashtirish va ularning mexanik va iste‘mol xususiyatlarini bashorat qilish uchun dastlabki ma’lumotlar sifatida ishlatilishi mumkinligi xorij tajribasi asosida o‘rganildi. Kompyuter tizimida o‘rilishlar chizmalarini ishlab chiqishning yangi texnologiyasi bilan birgalikda yaratilgan chizmalardagi yangi badiiy sifatlarni tahlil qilish – to‘qimalarni ommaviy (yoppasiga) badiiy loyihalashda yangi stilistik yo‘nalish bo‘lishini bashorat qilish asoslari keltirildi. Adabiyotlar sharhi asosida tadqiqot vazifalari belgilandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“To‘quv dastgohlarida yo‘l-yo‘l naqshli to‘qimalar ishlab chiqarishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bobida to‘quv dastgohlarida assortimenlik imkoniyati, asosan, homuza hosil qilish mexanizmi, to‘qimani tortish va o‘rash mexanizmlari, shuningdek, dastgoh ko‘p rangli mexanizmining ishlash tartibi bilan bilan bog‘liqligi asoslandi. Bobda, turli

quvvatli to‘quvchilik korxonalari dastgohlari va ishlab chiqarayotgan mato turlari tadqiq etildi, tahlil qilingan jami 3627 ta turli rusumdagi to‘quv dastgohlarining 70 % ini Rossiyaning “Texmashholding” kompaniyasining STB turidagi mitti mokili to‘quv dastgohlari tashkil etdi. Mitti mokili to‘quv dastgohlari ko‘p sonda o‘rnatilgan bo‘lsada, bu turdagi to‘quv dastgohlari unumdorligining nisbatan pastligi, to‘qima o‘rilishi va arqoq bo‘yicha zichlikni almashtirishdagi murakkab hisob ishlari va mexanik ishlarning bajarilishini hisobga olib, boshqa turdagi to‘quv dastgohlarining assortimentlik imkoniyatlari ham o‘rganildi. Itema firmasining zamonaviy R9500² rapirali to‘quv dastgohlarida foydalaniladigan iplar qamrovi (diapazoni) 2,2-333 teksgacha bo‘lib, turli tolaviy tarkibli iplardan turli assortimentdagi yengil, o‘rta og‘irlikdagi va og‘ir to‘qimalarni eng yuqori enda ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. 4, 8, 12 xilgacha arqoq tashlash mumkin, arqoq rangini tanlash elektron boshqariladi. Unumdorligining yuqoriligi bilan e‘tirof etilayotgan Wiltop kompaniyasining WT-9100 rusumli pnevmatik to‘quv dastgohlari yangi elektron boshqaruv tizimi yordamida to‘qima ishlab chiqarish jarayoni ko‘rsatkichlarini avtomatik sozlash va ish holatini nazorat qilish imkoniyatiga ega.

Toshkent shahridagi “SUN TEX” MChJda mavjud Itema firmasining R9500² to‘quv dastgohlarida turli chiziqli zichlikdagi kimyoviy iplar asosida yo‘l-yo‘l naqshli to‘qimalar ishlab chiqarish uchun o‘rilishlar loyihalandi. To‘qima sirtida hosil bo‘lgan ko‘ndalang yo‘l-yo‘l naqshlar - bir qatlamli to‘qimalar o‘rilishi, xususan, bosh va mayda naqshli o‘rilishlar asosida ishlab chiqildi.



1-rasm. Tajriba namunalari uchun ko‘ndalang yo‘lli to‘qima o‘rilishi.

Xususan, 1,2,3,4,5-namunalari ishlab chiqarishda sarja 5/5 va satin 5/3 o‘rilishlaridan (1,a-rasm) foydalanildi. 6-namuna satin 5/3 va sarja 1/9 o‘rilishlaridan (1,b-rasm) foydalanib va 7-namuna satin 5/3 va sarja 2/8 o‘rilishlaridan (1,v-rasm) foydalanib ishlab chiqarildi.

Ko‘ndalang yo‘lli tajriba namunalari ishlab chiqarishda 11 teksli (100 Den) polyester kompleks iplaridan tanda sifatida foydalanildi. To‘qimalarning tanda bo‘yicha zichligi 600 ip/10 sm ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan namunalarni faqat o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar ta‘sirini tahlil qilish maqsadida dastgohni

boshqa taxtlash ko'rsatkichlari (tanda ipi chiziqli zichligi, tanda bo'yicha zichlik, homuza o'lchamlari va boshqalar) o'zgartirilmadi.

1-jadval.


Ko'ndalang yo'lli tajriba namunalarida ko'ndalang yo'llarni hosil qilish uchun arqoq iplarini to'quv dastgohiga taxtlash ko'rsatkichlari.

Namunalar	Arqoq iplarining tolaviy tarkibi va chiziqli zichligi, teks				To'qimaning arqoq bo'yicha zichligi, ip/10 sm		Asos o'rilishini takrorlanish lari soni		O'rilishning arqoq bo'yicha rapporti
	1-yo'l		2-yo'l		1-yo'l (P _{A1})	2-yo'l (P _{A2})	1-yo'l	2-yo'l	
	tarkib	T _{A1}	tarkib	T _{A2}					
1-namuna	oq PET	33x3	oq PET	33x3	250	250	10	5	100
2-namuna	bo'y.PET	33	bo'y.PET	33	300	300	12	6	120
3-namuna	oq PET+ FDY+ bo'y.PET	33x3	oq PET+ FDY+ bo'y.PET	33x3	150	150	6	3	60
4-namuna	oq PET	33	oq PET	33	250	225	10	4	95
5-namuna	kumush ip bo'y.PET	11; 11	bo'y.PET	11	300	270	12	5	114
6-namuna	oq PET	33	bo'y.PET+ Neylon+ FDY	33x3	200	250	12	8	135
7-namuna	oq PET	33	bo'y.PET+ Neylon+ FDY	33x3	250	135	10	3	77
8-namuna	shakl.sin.	189	oq PET+ FDY+ bo'y.PET	37x3	100	150	4	6	50

1-jadvalda quyidagi qisqartirishlar keltirildi:

- oq PET - oq rangdagi polyester kompleks ipi;
- bo'y.PET - bo'yalgan polyester kompleks ipi;
- FDY - to'liq cho'zilgan polyester kompleks ipi;

Shuningdek, O'zbekistonda paxta tolasini chuqur qayta ishlashga berilayotgan e'tibor, paxta iplaridan oddiy bir qatlamli to'qimalar qatorida yangi murakkab to'qimalar o'rilishi bilan ham gazlamalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari davom ettirildi. "NT HOLDING Home Textile" MChJda mavjud Wiltop firmasining WT9100 to'quv dastgohlarida paxta tolali va polyester iplardan yo'l-yo'l naqshli to'qimalar ishlab chiqarish uchun o'rilishlar loyihalandi. To'qima sirtida hosil bo'lgan ko'ndalang yo'l-yo'l naqshlar bir yarim qatlamli va ikki qatlamli murakkab to'qimalar o'rilishi asosida ishlab chiqildi.




2-rasm. Paxta ipli bir yarim va ikki qatlamli ko‘ndalang yo‘lli to‘qimalar uchun loyihalangan o‘rilishlar

a),b),v)-polotno hosilalari asosida qo‘shimcha tandali bir yarim qatlamli to‘qima o‘rilishi;
g) polotno va sarja asosida ikki qatlamli to‘qima o‘rilishi.

**2-jadval.
Paxta ipli ko‘ndalang yo‘lli tajriba namunalarining to‘quv dastgohiga taxtlash ko‘rsatkichlari.**

Namunalar	Ko‘ndalang yo‘l uchun asos o‘rilishi	To‘qimadagi iplarning chiziqli zichligi, teks				To‘qimaning zichligi, ip/10 sm		
		tanda ipi		arqoq ipi		tanda bo‘yicha	arqoq bo‘yicha	
		1-sist.	2-sist.	1-yo‘l	2-yo‘l		1-yo‘l	2-yo‘l
1-namuna	arqoqli reps	29	29x2	29	29	110	140	200
2-namuna	tandali reps	29	29x2	29	29	110	140	200
3-namuna	rogojka	29	29x2	29	29	110	140	200
4-namuna	polotno va sarja	29	29x2	29	37	110	140	400
5-namuna	polotno va sarja	29	29x2	37	37	110	140	400
6-namuna	polotno va sarja	29	29x2	37	37 PET	110	140	400

Dissertatsiyaning uchinchi “**Tanda va arqoq iplarining o‘zaro ta’sirlashuvdagi deformatsiyalanish xususiyatlari**” deb nomlangan bobida to‘quvchilik jarayonida deformatsiya tufayli tanda va arqoq iplari ko‘ndalang kesim yuzalarining o‘zgarishi (3-rasm) ularning bikrliklari o‘zgarishiga olib kelishi asoslandi.



3-rasm. Tanda va arqoq iplari ellips kesim yuzasi hosil qilishdagi o‘zaro ta’sirlashuv zonasi hisob sxemasi.

- a) arqoq va tanda iplarini o‘zaro ta’sirlashuv zonasi b) a shakldagi A-A kesim ko‘rinishi

Tanda va arqoq iplari bikrlilik koeffitsientlari asosida to‘qima qalinligini hisoblash formulasi ishlab chiqildi. Iplar bikrliligi qancha yuqori bo‘lsa ularning deformatsiya hisoblari shuncha kichik bo‘ladi va to‘qima qalinligi ortadi. Bir qatlamli to‘qima qalinligini arqoq va tanda iplari yo‘g‘onliklari va bikrlilik koeffitsientlariga bog‘liqlik grafiklari qurildi.

To‘qish jarayonida, taranglash orqali bosim kuchi va ipning o‘zini og‘irlik kuchi ipni vertikal yo‘nalishda deformatsiyaga sabab bo‘ladi. Iplarning deformatsiyalanishi bikrliligiga bog‘liq bo‘lib, tiklanuvchi kuch orqali ifodalanadi va u umumiy bosim kuchi bilan muvozanatlashadi. Shuni inobatga olib, tanda va arqoq iplari vertikal yo‘nalishdagi bikrlilik koeffitsientlari hisoblash uchun quyidagilar hosil qilindi:

$$C_T = \frac{P_b}{(b_1 + \delta_1)(1 - \cos \frac{\beta_1}{2})}; \quad C_A = \frac{P_b + m_T}{(b_2 + \delta_2)(1 - \cos \frac{\beta_2}{2})}; \quad (1)$$

bu yerda:

C_T va C_A - tanda va arqoq iplari vertikal yo‘nalishdagi bikrlilik koeffitsientlari;

P_b - taranglik bosim kuchi;

m_T - tanda ipi ta’sir zonasi qismi massasi;


g - erkin tushish tezlanishi;

r_1 va r_2 – tanda va arqoq iplari ko‘ndalang kesim yuzalari radiuslari;

Mos ravishda ushbu bir qatlamli to‘qima qalinligini iplarni kesim yuzalarini inobatga olib quyidagicha aniqlanadi:

$$H = r \cdot \left[r_1 + r_2 - \frac{P_b - C_T b_1 (1 - \cos \frac{\beta_1}{2})}{C_T (1 - \cos \frac{\beta_1}{2})} - \frac{P_b + m_T g - C_A b_2 (1 - \cos \frac{\beta_2}{2})}{C_A (1 - \cos \frac{\beta_2}{2})} \right] \quad (2)$$

To‘qima qalinligini ifodalovchi formula sonli yechimini komyuter yordamida parametrlarini boshlang‘ich qiymatlarini inobatga olib amalga oshirildi va grafiklari qurildi.



4-rasm. Bir qatlamli to‘qima qalinligini arqoq va tanda iplari yo‘g‘onliklari va bikrlilik ko‘ffitsientlariga bog‘liqlik grafiklari.

$$(1-C_A > C_T; 2-C_A = C_T; 3-C_A < C_T)$$


Ma’lumki, to‘qima qalinligi deformatsiyalangan arqoq va tanda iplari, ellips shakldagi kichik diametrlari qiymatlariga proporsional ravishda o‘zgaradi. Jumladan, $C_A < C_T$ bo‘lganda H qiymatlari $0,245 \cdot 10^{-3}$ m dan $1,41 \cdot 10^{-3}$ m gacha chiziqli bog‘lanishda ortib boradi. Mos ravishda $C_A = C_T$ bo‘lganda H qiymatlari $0,12 \cdot 10^{-3}$ m dan $0,69 \cdot 10^{-3}$ m gacha chiziqli qonuniyatda ortib boradi. Bunda ellips shakldagi iplar kichik diametrlari qiymatlari $0,05 \cdot 10^{-3}$ m dan $0,7 \cdot 10^{-3}$ m gacha ortib brogan bog‘liqligi ta’sirida olingan. Demak, to‘qima qalinligini ko‘paytirish uchun tanda va arqoq iplari radiuslari ko‘paytirish hamda ularning ezilishga bikrlilik ko‘ffitsientlarini ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bobda shuningdek, turli o‘rilishli to‘qimalarda arqoq va tanda iplarini deformatsiyalanish xususiyatlari, tavsiya qilingan to‘qima o‘rilishida ip tarangligini aniqlash bo‘yicha nazariy izlanishlar natijalari keltirildi. Shuningdek, to‘qima o‘rilishida iplarni deformatsiyalanishini ularni chiziqli zichligiga ta’siri ham tahlil qilindi. Umuman olganda, doira yuza deformatsiyalanib, shakli o‘zgarsa ham yuza qismi deyarli o‘zgarishsiz qoladi. Bunday talqin o‘rinli bo‘lganida:

$$\pi \cdot R^2 = \pi \cdot ab \quad (3)$$

Shuningdek, $a - b = \delta_1$ ekanligini e’tiborga olsak:

$$b = \frac{-\delta_1 \sqrt{\delta_1^2 + 4R^2}}{2\delta_1}; \quad a = \delta_1 + b \quad (4)$$



5-rasm. Iplar ko‘ndalang kesimi doiradan ellipssimon holatga o‘zgarishi.

Ta'kidlash muhimki, iplar kesim yuzalari elliptik shaklga kelganida to'qilayotgan to'qima yuzasi mos ravishda ortadi, yuzadagi zichligi kamayadi.

Mos ravishda chizmani tahliliga ko'ra, tanda ipi uzunligi bo'yicha arqoq ip kesim yuzasini katta o'qi uzayishini inobatga olinganda, quyidagi ifodani yozish mumkun bo'ladi:

$$K = \frac{R - \delta_1}{R} \cdot 100\%; \quad (5)$$

bu yerda:

K-iplarni chiziqli zichlikligini xarakterlovchi koeffitsient.

Demak, iplarning deformatsiyalanishini ortishi bilan chiziqlik zichlik koeffitsienti kamayib boradi. Bunga mos ravishda rapportdagi iplar soni ham kamayadi. Shuning uchun yetarli kattalikdagi iplarning chiziqli zichligini oshirish uchun deformatsiya qiymati δ_1 ni kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ishqalanish kuchi, ip tarangligini kamaytirish talab etiladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi "**Yangi loyihalangan ko'ndalang yo'lli to'qimalarning tuzilishi bo'yicha texnologik xossalarini aniqlash**" deb nomlangan bobida yangi loyihalangan ko'ndalang yo'lli to'qimalarning sirt zichligini aniqlash va kimyoviy ipli ko'ndalang yo'l-yo'l naqshli to'qimalarning texnologik ko'rsatkichlarini tadqiq qilish bo'yicha natijalar keltirildi.

To'qima sirt zichligi uni ishlab chiqarishga sarf bo'lgan xom ashyo miqdorini aniqlash bilan birga tuzilishini aniqlovchi omillarning nisbatiga qarab zichligi va boshqa xossalarini ham aniqlaydi. Gazlamalarning foydalanilish maqsadi, aksariyat hollarda, uning sirt zichligiga qarab aniqlanadi: eng yengil to'qimalardan ich kiyimlar, erkak va ayollar ko'ylaklari tikilsa, o'rta vaznli matolardan shimlar, kostyumlar, og'ir vaznlilar esa palto, mebelbop va texnik maqsadlarda ishlatiladi.

Ma'lumki, to'qimalar sirt zichligi ularni ishlab chiqarishda tanda va arqoq iplarining chiziqli zichligi, 10 sm ga to'g'ri keladigan iplar soni va to'qimada iplarning egilish darajasi, ya'ni to'quvchilikda tanda va arqoq iplarining qisqarish qiymatiga bog'liq. Quyida mavjud bir qatlamli to'qimalarni sirt zichligini aniqlash formulasi asosida (tanda iplari uchun - M_T , ikki xil ko'ndalang yo'ldagi arqoq iplari uchun - M_{A1}, M_{A2}) yangi ko'ndalang yo'-yo'l naqshli to'qimaning sirt zichligini (M_{M^2}) aniqlash tavsiya etildi. Yangi tarkibli to'qimaning o'ziga xosligi uning ikkita ko'ndalang yo'l naqshlarini dastgohda 2 xil o'rilish bilan ishlab chiqarilganligidadir, ya'ni:

100 m² ko'ndalang yo'l-yo'l naqshli to'qimaga sarflangan tanda ipi og'irligi:

$$M_T = \frac{P_T \cdot 10 \cdot T_T}{\left(\left(1 - \frac{a_{T1}}{100}\right) + \left(1 - \frac{a_{T2}}{100}\right)\right) \cdot 10^3}, \text{ kg} \quad (6)$$

100 m² ko'ndalang yo'l-yo'l naqshli to'qimaga sarflangan arqoq iplari og'irligi:

$$M_{A1} = \frac{P_{A1} \cdot 10 \cdot T_{A1}}{\left(1 - \frac{a_{A1}}{100}\right) \cdot 10^3}, \text{kg} \quad M_{A2} = \frac{P_{A2} \cdot 10 \cdot T_{A2}}{\left(1 - \frac{a_{A2}}{100}\right) \cdot 10^3}, \text{kg} \quad (7)$$

1 m² ko'ndalang yo'l-yo'l naqshli to'qimaning og'irligi, g

$$M_{M^2} = \frac{M_T + M_{A1} + M_{A2}}{100}, \text{g/m}^2 \quad (8)$$

bunda:

T_T – tanda ipining chiziqli zichligi, teks

T_{A1}, T_{A2} – 1 va 2-ko'ndalang yo'llardagi arqoq iplarining chiziqli zichligi, teks

P_T – to'qimaning tanda bo'yicha zichligi, ip/10sm

P_{A1}, P_{A2} – to'qimada 1 va 2-ko'ndalang yo'llardagi arqoq bo'yicha zichlik, ip/10sm

a_{T1}, a_{T2} – tanda iplarining 1 va 2-ko'ndalang yo'llardagi qisqarishi, %

a_{A1}, a_{A2} – arqoq iplarining 1 va 2-ko'ndalang yo'llardagi qisqarishi, %

Iplarni to'qimada to'lqinsimon joylashishlari natijasida dastgohda shakllangan to'qima uzunligidan (enidan) unga sarf bo'lgan tanda (arqoq) uzunliklari miqdori katta bo'ladi. Bu farqning foizdagi qiymati qisqarish deyiladi. Iplarning to'quvchilikdagi qisqarish qiymati nafaqat xom-ashyo sarfiga, shuningdek, to'qimaning xossalariga ham ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun to'qima tuzilishini aniqlovchi asosiy kompleks ko'rsatkich hisoblanadi. To'quvchilik amaliyotida mavjud to'qimalar uchun tanda va arqoq iplarining qisqarishi amaliy (eksperimental) usullarda aniqlanadi.

Yangi tarkibli ko'ndalang yo'l-yo'l naqshli to'qimada ikki xil o'rilish va arqoq bo'yicha zichligi farqli ko'ndalang yo'l-yo'l qismlarda tanda va arqoq iplarining qisqarishini aniqlashda keyingi yillarda Rossiya olimlari va Janubiy Koreya olimlarining ishlab chiqqan usullaridan foydalanildi.

Tanda iplarining qisqarishi:

$$a_T = \left[1 - \frac{100 \cdot \frac{R_T}{P_A}}{\frac{100}{P_A} \cdot (R_A - t_T) + \sqrt{\left(\frac{100 \cdot R_T}{P_A} - \frac{100}{P_A} \cdot (R_A - t_T)\right)^2 + (h_T \cdot t_T)^2}} \right] \cdot 100, \% \quad (9)$$

$$h_T = 2d_X - h_A$$

$$h_A = \frac{1}{t_A} \cdot \sqrt{\left(\frac{100 \cdot R_T}{N_T \cdot Z} - \frac{100}{P_T} \cdot (R_T - t_A)\right)^2 - \left(\frac{100 \cdot R_T}{P_T} - \frac{100}{P_T} (R_T - t_A)\right)^2} \quad (10)$$

$$d_X = \frac{d_T + d_A}{2}$$

Arqoq ipining qisqarishi:

$$a_A = \left[1 - \frac{100 \times \frac{R_T}{P_T}}{\frac{100}{P_T} \cdot (R_T - t_A) + \sqrt{\left(\frac{100 \cdot R_T}{P_T} - \frac{100}{P_T} \cdot (R_T - t_A) \right)^2 + (h_A \cdot t_A)^2}} \right] \cdot 100, \% \quad (11)$$

h_T, h_A -tanda va arqoq iplarining egilishdagi to'liq balandligi, mm

t_T, t_A - tanda va arqoq iplarining kesishishlari soni

To'qimada iplarning qisqarishi va sirt zichligini nazariy aniqlangan qiymatlarini haqiqiy qiymatlar bilan taqqoslash maqsadida kimyoviy ipli tajriba namunalari tadqiq qilindi va aniqlangan natijalar 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

Yangi loyihalangan kimyoviy ipli ko'ndalang yo'l-yo'l naqshli to'qimalarda tanda va arqoq ipi qisqarishi va to'qimaning sirt zichligiga arqoq ipi ko'rsatkichlarining ta'siri

№	To'qima tuzilishini belgilovchi omillar				To'qimada iplarning qisqarishi, %				To'qimaning sirt zichligi, g/m ²	
	P _{A1}	P _{A2}	T _{A1}	T _{A2}	Tanda		Arqoq		nazariy	amaliy
					nazariy	amaliy	nazariy	amaliy		
1.	250	250	33x3	33x3	4,2	4	2,1	2	560	546
2.	300	300	33	33	4,1	4	1,1	1	272	268
3.	150	150	33x3	33x3	8,3	8	4	4	379	365
4.	250	225	33	33	6	6	2	2	230	226
5.	300	270	11	11	4,8	5	3,1	3	135	128
6.	200	250	33	33x3	11,5	12	3	3	398	387
7.	250	135	33	33x3	11	11	2	2	294	289
8.	100	150	189	37x3	7,2	7	3,1	3	435	431

Nazariy hisoblashlar bilan tajribada aniqlangan qisqarishlar foizida farq deyarli kuzatilmadi. Lekin nazariy hisob ishlarida to'qima shakllanish jarayonida iplarining cho'zilish va ezilish deformatsiyalari, tarangligi hisobga olinmaganligi sababli arqoq ipi chiziqli zichligi ortgan variantlarda nazariy va tajribaviy miqdorlarda 3-4% ga farqlar mavjudligi aniqlandi.

Ko'ndalang yo'l-yo'l qism arqoq iplari qisqarishining nazariy hisoblari tanda ipi chiziqli zichligi va to'qimaning tanda bo'yicha zichligiga bog'liq. Sinov namunalarda bu ko'rsatkichlar o'zgartirilmaganligi uchun arqoq ipi qisqarishining nazariy miqdorlarida deyarli farq yo'q. Tajriba natijalari ham nazariy aniqlangan qisqarishlar foizidan deyarli farq qilmasligi aniqlandi.

Loyihalangan tajriba namunalarining tanda va arqoq iplari uchun kimyoviy kompleks iplardan foydalanilganligi uchun ularning ahamiyatli xossalarning sonli qiymatlari kimyoviy tolali ko'ylakbop, ko'ylak-kostyumbop va kostyumbop

to'qimalar uchun mo'ljallangan GOST 29223-91 xalqaro standartida belgilangan qiymatlar bilan solishtirildi.

4-jadval


Tajribaviy namunalarning ahamiyatli xossalari

Namunalar Ko'rsatkichlar	Stan dart	1	2	3	4	5	6	7	8
Uzilish kuchi, N Tanda Arqoq	343	642 764	648 701	636 720	623 706	601 619	624 728	645 708	622 778
Uzilishdagi uzayish, % Tanda Arqoq	10 14	15 25	14,8 22	14,3 21	14,6 22,1	14 15,1	14,7 27	15 21,6	14,7 24
G'ijimlanmasligi, %	60	78	84	74	86	70	89	87	91
Pillinglanishi, dona	4	2	1	2	2	3	1	1	1
Yemirilishga chidamliligi, sikl	300	490	526	498	550	446	503	529	558
Havo o'tkazuvchanligi, sm ³ /sm ² *sek	50	62,1	80,3	93,2	84,4	89,1	77,5	76,8	67
Sitiluvchanligi, N (22 N dan yuqori bo'lsa yo'q) Tanda Arqoq	10 6	Yo'q 14	18 8	Yo'q 13,2	18 14	21 17	Yo'q 8	21 7	19 9
Namlab ishl.beril. o'lcham. o'zgarishi (kirishish), % Tanda bo'yicha Arqoq bo'yicha	-2,0 ±1,5	- 1	- 1	- 0,5	- 1	- 1	- -	- 1	- -


Tajribaviy namunalarning ahamiyatli xossalari keltirilgan 4–jadvalda standart bo'yicha to'qimalarning xossalari sirt zichligi 150 g/m² dan yuqori bo'lgan to'qimalar uchun belgilangan qiymatlar bilan taqqoslandi. Bunda to'qimalarning mustahkamligi umumiy 343 H dan kam bo'lmasligi belqilab qo'yilgan. Tajribaviy namunalarning barcha variantlarida bu ko'rsatkich ham tanda bo'yicha, ham arqoq bo'yicha yuqori, tanda bo'yicha o'rtacha uzilish kuchi 630 N ni, arqoq bo'yicha 716 N ni tashkil etmoqda. 8 ta variantda tanda bo'yicha mustahkamlik 601 N dan 648 N gacha o'zgarganini kuzatish mumkin, namunalarda tanda ipi chiziqli zichligi va to'qimaning tanda bo'yicha zichligi o'zgarmagan, lekin o'rilishlari va arqoq ipi bo'yicha to'qima tuzilishi ko'rsatkichlari turlicha bo'lganligi uchun tanda bo'yicha mustahkamlik o'rtacha qiymatga nisbatan o'zgarishi 5% dan oshmaydi.

6-rasmda tajriba namunalarining g'ijimlanmaslik xossasi bo'yicha natijalar keltirildi. Standart bo'yicha kimyoviy tolalari gazlamalarda g'ijimlanmaslik 60% dan kam bo'lmasligi lozim. Tajriba namunalarining o'rtacha g'ijimlanmaslik

ko'rsatkichi 82,3% ni tashkil etdi. Eng yuqori g'ijimlanmaslik ko'rsatkichi 8, 6 va 7-namunalarga tegishli bo'lib, 87-91%ni tashkil etdi. Eng kam g'ijimlanmaslik ko'rsatkichi 5-namunaga tegishli, standartga nisbatan 10% ga yuqori bo'lganligi kuzatildi.



6-rasm. Namunalarning g'ijimlanmaslik ko'rsatkichlari.



7-rasm. Namunalarning yemirilishga chidamliligi.

7-rasmda tajriba namunalarning yemirilishga chidamliligi bo'yicha natijalar keltirildi. Standart bo'yicha kimyoviy tolalari gazlamalarda ushbu ko'rsatkich 300 sikldan kam bo'lmashligi lozim. Tajriba namunalarning o'rtacha yemirilishga chidamliligi 512 sikl ni tashkil etdi. Eng yuqori yemirilishga chidamlilik ko'rsatkichi 8 va 7-namunalarga tegishli bo'lib, 529-558 siklni tashkil etdi. Eng kam yemirilishga chidamlilik ko'rsatkichi 5-namunaga tegishli 446 sikl, standartga nisbatan qariyb 1,5 barobarga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida quyidagilarga asosan iqtisodiy samaradorlik kutiladi:

- zamonaviy to'quv dastgohlarining assortimentlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish hisobiga kutiladigan iqtisodiy samaradorlik;
- yangi assortimentdagi matolarini ishlab chiqarishdan kutiladigan iqtisodiy samaradorlik.

Mavjud korxonalarda turli assortimentdagi matolarining ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlar hisoblandi. Xom-ashyo (ip) va ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlar mavjud ishlab chiqarish korxonalarini ma'lumotlariga ko'ra qabul qilindi.

1000 metr mavjud gazlamalarni ishlab chiqarishdan korxonada oladigan so'f foyda 4 100 ming so'mni tashkil etdi, tajribaviy bir qatlamli to'qima namunalarni 1000 metr ishlab chiqarishdan 11 385 ming som, tajribaviy murakkab to'qima namunalarni ishlab chiqarishdan 14 400 ming som foyda olinadi. Bunda mahsulot samaradorligi mos ravishda 20,6% mavjud gazlama uchun, 48,2-56,2% yangi loyihalangan ko'ndalang yo'li gazlamalarni ishlab chiqarishda tashkil etadi.

Zamonaviy to'quv dastgohlari bilan jihozlangan korxonalarda kapital mablag'larni qoplanish muddati o'rtacha 2,5 marta qisqaradi.

XULOSA

1. Bugungi kunda eng mashhur va to'quvchilik korxonalariga eng ko'p o'rnatilib, foydalanilayotgan mitti mokili, rapirali va pnevmatik to'quv dastgohlarining assortimenlik imkoniyati - homuza hosil qilish, to'qimani tortish va o'rash, shuningdek, ko'p rangli mexanizmlarning ishlash tartibi bilan bog'liq.
2. Mavjud turli quvvatli to'quv korxonalari dastgohlari va ishlab chiqarayotgan mahsuloti tahliliga ko'ra, yuqori texnologik imkoniyatlarga ega rapirali va pnevmatik to'quv dastgohlaridan samarali foydalanilish lozimligi asoslandi.
3. "SUN TEX" MChJda mavjud Itepa firmasining R9500² rapirali to'quv dastgohlarida kimyoviy iplardan foydalanib, bosh o'rilishlar asosida yo'l-yo'l naqshli bir qatlamli to'qimalar loyihalandi va ishlab chiqarildi.
4. Loyihalangan bir qatlamli to'qimalarning naqsh yo'nalishida o'rilishning arqoq bo'yicha rapporti va asos o'rilishlarning takrorlanishlari soni hisoblandi.
5. "NT HOLDING Home Textile" MChJda mavjud Wiltop firmasining WT9100 to'quv dastgohlarida paxta tolali va polyester iplardan murakkab to'qimalar o'rilishi va arqoq bo'yicha turli zichlikdagi ko'ndalang yo'lli to'qimalar loyihalandi va sinov namunalari ishlab chiqarildi.
6. Tanda va arqoq iplari bikrlilik koeffitsientlari asosida to'qima qalinligini hisoblash formulasi ishlab chiqildi. Iplar bikrliliklari qancha yuqori bo'lsa ularning deformatsiya hisoblari shuncha kichik bo'ladi va to'qima qalinligi ortadi. Arqoq iplari bikrlilik koeffitsienti tanda iplari bikrlilik koeffitsientidan kam bo'lganda, to'qimaning qalinligi $0,245 \cdot 10^{-3}$ m dan $1,41 \cdot 10^{-3}$ m gacha chiziqli bog'lanishda ortib boradi.
7. Tanda ipi uzunligi bo'yicha arqoq ip kesim yuzasini katta o'qi uzayishini inobatga olgan holda iplarning chiziqlik zichlik koeffitsientini hisoblash ifodasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, iplarning deformatsiyalanishini ortishi bilan chiziqlik zichlik koeffitsienti kamayib boradi. Mos ravishda rapportdagi iplar soni ham kamayadi. Shuning uchun deformatsiya qiymatini kamaytirish maqsadga muvofiq.
8. Loyihalangan bir qatlamli yo'l-yo'l naqshli to'qimalarda tanda va arqoq iplari qisqarishlarini hisobga olib sirt zichligini nazariy aniqlash ifodasi ishlab chiqildi, nazariy va tajribaviy miqdorlarda 3-4% ga farqlar kuzatildi.
9. Tajribaviy namunalarning uzilish kuchi, uzilishdagi uzayish, g'ijimlanmasligi, pillinglanishi, yemirilishga chidamliligi, havo o'tkazuvchanligi, siviluvchanligi, namlab ishlov berilganda o'lchamlarning o'zgarishi (kirishish) kabi xossalari tadqiq qilinib, ko'ylak-kostyumbop gazlamalar uchun tavsiya qilingan Standart talablariga javob berishi aniqlandi.
10. Ishlab chiqirilgan yuqori sirt zichlikka ega tajriba namunalari mebelbop gazlamalar uchun, o'rta va past sirt zichlikka ega tajriba namunalari ko'ylak-kostyumbop gazlamalar uchun tavsiya qilindi.
11. Tajribaviy namunalarni ishlab chiqarishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik 11 385 ming so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.06.2020.Т.115.01 ПРИ ДЖИЗАКСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТЕ**

ДЖИЗАКСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ШАМИЕВ ДИЁР БАХРИДДИН УГЛИ

**ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПОЛОСАТЫХ ТКАНЕЙ НА ОСНОВЕ
АССОРТИМЕНТНЫХ ВОЗМОЖНОСТИ ТКАЦКИХ СТАНКОВ**

05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Джизак–2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2021.4.PhD/T2530.

Диссертация выполнена в Джизакском политехническом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен в веб-сайте Джизакского политехнического института (www.jizpi.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Дониёрова Матлуба Адашбаевна
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Валиев Гулам Набиджанович
доктор технических наук, профессор

Хазраткулов Хамид Аликулович
доктор философии по техническим наукам,
доцент

Ведущая организация:

Бухарский инженерно-технологический институт

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета под номером PhD.03/30.06.2020.T.115.01 при Джизакском политехническом институте «31» января 2024 года (Адрес: 130100, Джизакское ш., ул. И.Каримова-4, тел: (+99872)226-46-05, факс: (+99872) 226-45-47, e-mail: dgri_info@edi.uz, административный корпус Джизакского политехнического института, 2 этаж, (малый актовыв зал).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Джизакского политехнического института (зарегистрирован под номером 59351). Адрес: 130100, г.Джизак, ул. И.Каримова-4, тел.: (+99872)226-46-05, факс: (+99872) 226-45-47.

Автореферат диссертации распространен «20» января 2024 года.

(Регистрационный отчет № 45 от «15» января 2024 года).

А. К. Усманкулов

Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

И.З.Аббазов

Ученый секретарь научного совета по присуждению Ученых степеней, к.т.н., доцент

А.П.Парпиев

Председатель научного семинара при научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (реферат кандидатской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В текстильной промышленности мира растущий спрос на различные виды одежды и товаров и использование новых методов и технологий при реализации этих требований занимают одно из ведущих мест. Ожидается, что объем мирового текстильного рынка будет расти со среднегодовыми темпами роста (CAGR) на уровне 7,6%³ в период с 2023 по 2030 год. Этот показатель связан не только с правильной организацией технологических процессов при производстве продукции текстильной промышленности, но и требует проектирования выпускаемой продукции, прогнозирования показателей качества и их реализации. С этой точки зрения важное значение в совершенствовании технологических процессов имеет эффективное использование технологических возможностей техники и оборудования.

В мировом опыте производства текстильных тканей рассмотрен выпуск нового ассортимента тканей с полосатым узором, расширение сферы их использования за счет глубокой переработки местных натуральных волокон, а также анализ технологических показателей ткацких станков. Проводятся научные исследования, направленные на формирование узоров разного размера в полосатых узорчатых тканях. В связи с этим приоритетными считаются исследования по улучшению потребительских свойств тканей путем поиска способов эффективного использования ассортимента ткацкого станка, предложения новых видов переплетения, исследования показателей качества. При этом особое внимание уделяется определению параметров заправки основных и уточных нитей на ткацком станке и их влиянию на размер узора при изготовлении полосатых узоров.

В нашей республике принимаются комплексные меры по увеличению доли текстильной промышленности в Национальной экономике, разработке новых видов показателей ткачества путем анализа технологических возможностей ткацких станков, широкому внедрению в производство результатов научных исследований, достигаются определенные результаты. В указа Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы» ставится задача «...продолжить промышленную политику, направленную на обеспечение устойчивости национальной экономики и увеличение доли промышленности в производстве местной продукции...»⁴. Также за счет увеличения объемов производства промышленной продукции в 1,4 раза определены важные задачи дальнейшей либерализации ведущих отраслей промышленности и экономики и завершения трансформационных процессов, в том числе удвоения объемов производства продукции текстильной промышленности. При реализации этих задач, среди прочего,

